

“BOBURNOMA” ASARIDA ETNONIMLARNING O‘RNI

Rajabov Feruz,

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa dokori(PhD),
QarshiMII akademik litseyi katta o‘qituvchisi.*

Roziqova Hulkar Toshkentovna,

Odiljon Norov Murodulloyevich

QarshiMII akademik litseyi o‘qituvchilari.

Annotatsiya. Bu maqolada “Boburnoma” asaridagi etnonimlar, ya’ni urug‘ va uning tarmoqlari, qabila va uning qismlari, xalq nomlari tarixiy, lingvistik manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: urug‘, elat, etnonim, etnonimika, statistik tahlil, arg‘un, turk.

Ma’lumki, insoniyat biologik jihatdan bir butun bo‘lsa ham, umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy etib, son-sanoqsiz guruhlar, to‘plarga bo‘linadi. Kishilar *urug‘, qabila, elat, xalq, millat* kabi uyushmalarga birlashib jamiyatda yashaydi hamda ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug‘ullanadi. Shular orasida *qabila* alohida o‘rin tutadi. Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik bo‘lib, ijtimoiy tashkiliy guruh, jamoadir. Elat esa kishilarning til jihatdan, hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo‘lib, millatdan oldingi bosqichdir.

Millat esa kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o‘ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Eng qadimdan XX asrgacha o‘zbeklar tarkibiga kirgan *barlos, nayman, saroy, qo‘ng‘irot* kabi urug‘ va qabilalar, o‘z navbatida, bir qancha *to‘p, tira, shox, avlod, qavm* singari tarmoqlarga bo‘linadi. Ana shu har bir etnik bo‘linishning o‘z nomi bor. *To‘p, to‘par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug‘, qabila, elat, xalq, millat* nomlari *etnonimlar* deb yuritiladi. *Etnonim* so‘zi yunoncha bo‘lib, *ethnos – xalq + onoma atoqli ot* so‘zlaridan tashkil topgan. Har qanday etnos (urug‘, qabila, elat, xalq, millat va boshqalar)ning nomi, bir tilda mavjud etnonimlar majmuyi, yig‘indisi, ro‘yxati *etnonimiya*, shuningdek tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi esa *etnonimika* deb yuritiladi.

Etnonimlarni o‘rganish bilan tilshunoslik, tarix, etnografiya, geografiya kabi bir qator fanlar shug‘ullanadi hamda ularni chuqurroq tadqiq etish xalq va millatning kelib chiqishi, etnogenezini aniqlashga yordam beradi.

Urug‘, qabila nomlari – etnonimlar asta-sekinlik bilan o‘sha jamoa yashaydigan hudud nomiga aylanib qoladi. Bunga *etnotoponim* deyiladi. Ba’zan etnonimlar asosida qaysi hududda qanday urug‘ yoki qabila vakillari yashaganligini bilish mumkin.

Masalan, O‘zbekiston hududining bir qancha joylarida *Jaloyir* degan qishloqlar bor. Aslida jaloyir urug‘i vakillari Ohangaron havzasi hamda Xo‘jand atroflarida XI-XIII asrlarda yashaganlar. 1375-yilda jaloyir qabilasi vakillari Amir Temurga qattiq qarshilik ko‘rsatgani uchun uning farmoni bilan jaloyirliklar sarkardasi qatl etiladi hamda bu qabila vakillari turli hududlarga ko‘chirib yuboriladi. Ana shundan keyin faqat jaloyirlar emas, balki ularning qo‘l ostidagi etnik guruhlar ham xuddi shunday nom bilan atalgan.

O‘zbek etnonimlarini o‘rganish sohasida O.Bo‘riyev, K.Shoniyozov, B.Ahmedov, A.Asqarov kabi tarixchi olimlar, X.Doniyorov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, A.Turobov, K.Marqayev, N.Begaliyev kabi tilshunos olimlar ko‘pgina ishlarni amalga oshirganlar. Masalan, K.Shoniyozovning “Ketnicheskoy istorii uzbekskogo naroda” (1974), “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001), B.Ahmedovning “O‘zbek ulusi” (2002) kabi asarlari nashr etilgan. N.A.Baskakov “Igor jangnomasi” asarida *topchak, tatran, mogut, ovar* kabi bir qator turkiy etnonimlar borligini aniqlab, ularning etimologiyasini o‘rgangan. Ushbu maqolamizda “Boburnoma” asaridagi etnonimlar haqida to‘xtalamiz.

“Boburnoma”da XV-XVI asrlarda mavjud bo‘lgan urug‘, qabila, elat tushunchalarini aks ettirishi bilan ham alohida qiymatga ega. Asarda turkiy qabila va elatlar, afg‘on va hind xalqi urug‘-qabilalarini ifodalovchi ellikdan ortiq termin qayd etilgan. Qabila urug‘ nomlari etnik termin, nisba, taxallus sifatida ham qo‘llangan. Onomastika - kishi ismidan tortib ilohiy nomlargacha, xalq nomidan tortib aholi punkti yoki kosmik obyekt nomigacha etnografik xarakterga ega.¹ “Boburnoma”dagi nomlarning ma‘lum qismi etnonimlar bilan bog‘liq. Unda qadimgi turkiy til davriga xos bo‘lgan, eski o‘zbek tilida ham faol qo‘llangan etnonimlar aks etgan. Mazkur terminlar lug‘aviy birlik sifatida denotativ va semantik taraqqiyot natijasidagi konnotativ ma‘nolarda namoyon bo‘lgan.

“Boburnoma”dagi onomastik birliklarning statistikasi bo‘yicha tadqiqotchilar tomonidan turlicha hisob-kitoblar qilingan. Jumladan, tadqiqotchi M.Hoshim “Boburnoma”da 1605 antroponim, 1151 ta toponim, 277 etnonim, 414 ta zoonim va fitonimlar, 40 ta kitob va risola nomlari mavjudligini hisoblab chiqqan²; T.Nafasov 1406 ta kishi ismi, 1100 dan ortiq joy nomi, 70 ga yaqin etnonim keltirilganini qayt etgan;³ Z.Xolmanovanning “Boburnoma” leksikasi mazusidagi tadqiqotida 1507 ta antroponim, 1253 ta toponim, 284 ta etnonim, 175 ta zoonim, 247 ta fitonim, 37 ta

¹ Этническая ономастика. М.: Наука, 1984.-С.5.

² Hoshim M. Besh yuz yillik qomus // Tafakkur.- 2003.-№ 1.-В.24-25.

³ Nafasov T. Bobur – nomshunos // Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993. –В. 39.

kitob va risola (biblionimlar), 4 ta kema nomi (nautonimlar)⁴ kabi onimlar borligini aniqlagan. Bu statistik ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, asarda etnonimlar ham alohida o'ringa ega. V.Qodirovning "tilshunoslik fanining etnonimika (urug' va uning tarmoqlari, qabila va uning qismlari, xalq nomlari) sohasi ham "Boburnoma"dan ibtido olganligi ayni haqiqat. Bu soha ilmda hali tarixiy va zamonaviy qiyos yo'sinida to'laqonli tadqiq etilmagan. O'zbek urug' va qabila nomlarini lisoniy va tarixiy-etnografik o'rganishda bu qomusiy asar muhim manba sifatida alohida qimmatga ega", bayoni fikrimizni isbotlaydi. Asardagi etnonimlarni tahlil qilganda ayrimlari umumturkiy mundarijaga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz: *arlot, bo'g'a, qipchoq, arg'un, qorluq, mang'it, chandir, afshor* kabi. Ayrimlari esa faqat o'zbek xalqigagina xos urug'-qabila nomlaridir: *do'ldoy, tag'oyi, o'g'lon, tog'chi, tug'chi, qaytmas, to'qboy* kabi⁵.

X.Doniyorov kelgan quyidagi xulosalar ham etnonimiya sohasini tadqiq qilish qanchalik muhim va ahamiyatli ekaniga dalil bo'la oladi: «Umuman olganda, 92 bovli o'zbek eli to'g'risida xalq orasida saqlanib kelgan bu ro'yxatlar tom ma'nosi bilan olganda hali qo'l tegizilmagan (o'rganilmagan) bir yangi soha va yangi bir xazinadir. Ularni sinchiklab o'rganish xalqimizning tarixi, etnografiyasi, madaniyat saviyasi va tilini o'rganish, ularning rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega».⁶

Asardagi qabila va urug' nomlari genetik asosiga ko'ra ikki xil: a) turkiy etnonimlar: *qipchoq, arlot, arg'un, turkman, mang'it, qarluq, bo'g'a, afshar, oqqo'yuluq, qoraqo'yuluq, chig'atoy, qipchoq, barlos, arlot, o'zbek, jaloyir, qavchin*; b) turkiy bo'lmagan etnonimlar: *ajam, arab, afg'on, dilazok, janjo'ha, jud, nakdariy, jatgujur, chorshanbihiy, ulus nuhoniy, fors, tojik, hindu, bangoliy, baluj, lo'li* sifatida ajratilgan.

Qabila-elat tushunchasini ifodalagan: *afg'on, mo'g'ul, turk, turkman, uyg'ur, xitoyi, cherkasi(cherkas), o'zbek, qozoq, hindu, tojik, tatar* terminlari kishilik taraqqiyotining keyingi davrlariga xosdir⁷. Asarda etnonimlardan turli maqsadlarda foydalanilgan:

1) voqea-hodisalarni, joylar manzarasini tasvirlar ekan, qabila, urug', elatlarning tili, yashash tarzi, o'ziga xos jihatlarni, ma'lum xususiyatlarini bayon qilish uchun: *Isfara* haqida so'z ketar ekan, u yerda yashovchi qabila, urug' nomlarini qayd etgan:

⁴ Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 19-21.

⁵ Qodirov V. "Boburnoma"dan ibtido olgan ilmlar. Til va adabiyot ta'limi. 2-son, – B. 40.

⁶ Qarang: Marqayev K. O'zbek etnonimiyasi muammolari. Monografiya. – Toshkent, 2021. – 126 b.

⁷ Qarang: Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007.

“Yana ba’zi kentlarida va viloyatida pashoyi va paroji va tojik va baraki va afg‘ondur”.

2) hudud aholisining umumiy sifatini keltirish uchun: *Eli tamom sort(tojik) va ko‘hiy (tog‘lik)dur.*

3) hududda yashovchi kishilarning el sifatidagi mashhurligiga sabab omil uchun: Marg‘ilon tabiati haqida so‘z yuritish jarayonida shunday yozgan: *Eli sortur va mushtzan va pursharu sho‘r eldur. Sort “tojik xalqi”. Mushtzan “mushti bilan uruvchi”; mushtlashuvchi”. Marg‘ilonliklarning urushqoq, jangari el sifatida tanilganini ta’kidlaydi: Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar marg‘inoniydur.*

4) qabila va elatlarning o‘ziga xos xarakterli jihatlarini yorqin chizgilarda ifodalash uchun: *eli agarchi sort va dehnishindur, vale atrokdek gala va ramaliq ellardur. Baluj qabilasining darbadar kezib yurishini ta’kidlagan: O‘zungni va o‘g‘lonlaringni, balujlarning darbadarliklaridin qutqardim. Darbadar “uysiz”, “boshpanasiz”, “sayoq”, “kambag‘al”. Mo‘g‘ul qavmiga o‘ziga xos xususiyatlari, urf-odatlarini bayon qilgan⁸.*

5) qabila va urug‘larning yashash manzillari haqida gap ketgani uchun: *Bu tarixda hazora va nakdariy qavmning ma‘man (omonlik joyi) va maskani bu tog‘lardur. G‘azni tog‘larida hazora va nakdaridur.*

6) geografik hududlar ta’rifida xalqning o‘zaro muomala tili haqida gapirish asnosida qabila va elat nomlarini tilga olgan: *O‘n bir-o‘n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg‘oniy. Bannu viloyatini egallagan afg‘on qabilalarini sanab o‘tgan. Afg‘on qaboyilidin kuroniy, kiviyy, sur, iso xayl, niyoziy bu viloyatni egarlar.*

7) shaxslar qiyofasini tasvirlar ekan, ularning qaysi qabila, urug‘ (millatga) mansubligini ma’lum qilgan: *Qoraqo‘yluq bahorlu aymog‘i turkman beklaridin Ali Shukurbekning qizi edi.*

8) asarda qayd etilgan etnonimlarning ayrimlari o‘zbek xalqining so‘nggi davr nasabnomalarida zikr etilmagan: *Dug‘lat (do‘g‘lat), o‘g‘loqchi, itorchi, do‘ldoy, tag‘oyi, chopuq, sori, to‘qboy, to‘g‘richi, chala, qaytmas, bo‘g‘a qashqa, hazara kabi urug‘-qabila vakillari Bobur harbiylari sanalgan, uning xizmatida bo‘lgan⁹.*

9) Bobur saroyi va askarlari orasida eng yaqin odamlari sifatida qaysi urug‘ ko‘pchilikni tashkil etganligi namoyon bo‘ladi: Masalan, «Boburnoma»da arg‘un etnonimi qo‘shib aytilgan 20 ga yaqin antroponim keltirilgan: *To‘fon arg‘un, Shoh*

⁸ Qudratullayev H. Boburning mo‘g‘ul qavmi va uning urf-odatlariga munosabati /Bobur armoni.-Toshkent:

Sharq NMAK, 2005. B.77-83.

⁹ Nafasov T. Bobur - nomshunos // Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993.-B. 40.

Shujo' arg'un, Qulibek arg'un, Shoh Hasan arg'un, Shohbek arg'un, Shayx Jamol arg'un, Ne'mag' arg'un, Sulton arg'un, Mazidbek arg'un, Zunnun arg'un, Pir Ahmad arg'un, Abu Yusuf arg'un, Qosim Xatika arg'un, Sherak arg'un, Farrux arg'un, Urus arg'un, Sulton Ali arg'un, Oshiq Muhammad arg'un. Manbalarda kam qayd etilgan *charosi, bekichik* urug'lari ham Bobur navkarlari qatorida qayd etilgan: *Burong'orda charosi bila bekichik urug'ining hamisha uchga chiqmoq taloshlari bor*¹⁰. "Boburnoma"dagi etnonimlarning kishi ismi tarkibidagi ma'nosi va boshqa lisoniy fazilatlarini tahlil qilish muhim amaliy qiymatga ega¹¹.

Turk termini XV asrda keng doirada turkman, ozarbayjon, usmonli turk xalqlariga nisbatan ham qo'llangan¹². "Boburnoma"da turk so'zining quyidagi ma'nolari kuzatiladi: 1) xalq nomini bildirgan (so'zning bosh ma'nosi): *..muning zarari turkka va mo'g'ulg'a musovidur*; 2) shaxs mansub bo'lgan millat, elatni bildirgan: *..turk va hind umarolarini chorlatib, chashn berduk*.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma" asari urug' va uning tarmoqlari, qabila va uning qismlari, xalq nomlariga boydir. Bu esa tarix, geografiya, tilshunoslik sohalaridagi ilm ahli uchun tarixiy va zamonaviy qiyos yo'sinida to'laqonli tadqiq etishga muhim mavzu sifatida o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати

1. Этническая ономастика. М.: Наука, 1984.-С.5.
2. Hoshim M. Besh yuz yillik qomus // Tafakkur.- 2003.-№ 1.-В.24-25.
3. Nafasov T. Bobur – nomshunos // Bobur va o'zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993. –В. 39.
4. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – В. 19-21.
5. Qodirov V. "Boburnoma"dan ibtido olgan ilmlar. Til va adabiyot ta'limi. 2-son, – В. 40.
6. Marqayev K. O'zbek etnonimiyasi muammolari. Monografiya. – Toshkent, 2021. – 126 b.
7. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Qudratullayev H. Boburning mo'g'ul qavmi va uning urf-odatlariga munosabati /Bobur armoni. -Toshkent: Sharq NMAK, 2005. В.77-83.

¹⁰ Xvan U.S., Markayev K. "Boburnoma" va o'zbek etnonimikasi // Bobur va o'zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993, 93-95-b.

¹¹ Nafasov T. Bobur nomshunos //Bobur va o'zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993. –В.40.

¹² Türk ҳақида қаранг: Кононов А. Н. Грамматика тюркских рунических памятников VII-IX в Абдуллаев Ф.А. XV аср ўзбек адабий тилида ўғуз традицияси // Ўзбек тили ва адабиёти.- 1968.-№3.-Б. 27. Қаранг: Назарова Х.Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка конца XV-начала XVI в. -Ташкент: Фан, 1979.- С.6.

9. Nafasov T. Bobur - nomshunos // Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993.-B. 40.
10. Xvan U.S., Markayev K. “Boburnoma” va o‘zbek etnonimikasi // Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993, 93-95-b.
11. Nafasov T. Bobur nomshunos //Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993. –B.40.